
SHAHAR HOKIMLIGIDA 2023 YILNING I-YARIM YILLIGI DAVOMIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH NATIJALARI YUZASIDAN XISOBOT

Shahar hokimligiga joriy yilning 1-yarim yilligi davomida barcha manbaalar orqali jismoniy va yuridik shaxs vakillaridan **315 ta** (446ta) murojatlar shundan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi **127ta** (223ta), Xalq qabulxonasi orqali 79 ta (92 ta), Bosh Prokuratura ishonch telefoni orqali **15 ta** (18ta) va shahar hokimligiga to'g'ridan-to'g'ri **94ta** (113ta) yozma murojaatlar kelib tushgan. (Bu ko'rsatkich 2021 yilning shu davrida 446 tani tashil etib, 131 taga yoki 29,4% kamaygan)

Xususan, mazkur murojaatlarning **188 tasi** (59,7%) ijobiy hal etilgan, **118 ta** (37,5%) murojaatga qonuniy tushuntirish berilgan, **9 ta** (2,8%) murojaat o'rganish jarayonida.

Murojaatlar sohalar kesimida tahlil etilganda, Boshlang'ich to'lovsiz uy-joy olish **58 ta**, Yo'llarni ta'mirlash **56 ta**, Moddiy yordam ajratish masalasida **48 ta**, Obodonlashtirish masalasida **43 ta**, Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida **31 ta**, Qishloq xo'jaligi sohasida **15 ta**, Uy-joylarni ta'mirlash **10 ta**, Ichimlik suvi masalasida **9 ta**, Tomorqalarni sug'orish masalasida **9 ta**, Raxbarlarning faoliyati masalasida **6 ta**, Ish bilan ta'minlash masalasida **5 ta**, Elektr ta'minoti **4 ta**, Daftarga (*Temir, Ayollar, Yoshlar*) kiritish masalasida **4 ta**, Oilaviy munisabatlar masalasida **1 ta**, Kredit olish masalasida **1 ta**, Qabul masalasida **1 ta**, Haj va Umra masalalarida **1 ta** hamda boshqa sohalarga oid **13 ta** murojaatlar kelib tushganligi aniqlandi.

Eng ko'p murojaatlar shaharning Ziynat **32 ta** (10,2%), Kokilon **27 ta** (8,6%), Pakana **24 ta** (7,6%), Qo'chqorchi **21 ta** (6,7%), X.Olimjon **21 ta** (6,7%), Bog'bon **16 ta** (5,1%), Do'stlik **17 ta** (5,4%), Polmon **12 ta** (3,8%), Yoshlik **12 ta** (3,8%), Arsif **11 ta** (3,5%), Huvaydo **10 ta** (3,2) mahalla fuqarolar yig'inlariga to'g'ri kelmoqda.

Joriy yilning 1-yanvar kundan, 1-iyul kuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual hamda Xalq qabulxonasi tomonidan jami **211 ta** murojaat yuborilgan bo'lib, Virtual qabulxona orqali **131 ta**, Xalq qabulxonasi orqali **80 ta** murojaat yuborilgan.

Shuningdek, ushbu murojaatlarning **68 tasi** yoki **32,2% ijobiy hal** etilgan bo'lib, viloyat hokimligi topshirig'iga asosan tushuntirish berish orqali nazoratdan chiqarilgan murojaatlarni qayta o'rganib chiqish hamda ijobiy hal etish orqali ijobiylik ko'rsatkichini oshirish maqsadida jami **143 ta** murojaat qayta o'rganib chiqish uchun tegishli mas'ullarga yo'naltirilgan.

Xususan, qayta o'rganib chiqish natijasi **129 ta** murojaat **ijobiy hal** etilib, ijobiylik ko'rsatkichi **32,2%** dan **64,5%** ga ko'tarilishiga erishildi.

Shu bilan birga joriy yilning 1-yarim yilligi davomida shahar hokimi tomonidan tasdiqlangan qabullar jadvaliga asosan shahar hokimi tomonidan jami **16 marotaba** shaxsiy hamda **26 marotaba** ommaviy sayyor qabul o'tkazilib, qabullar davomida jami **391 nafar** fuqarolarning murojaatlari ro'yxatga olingan.

Shundan, **211 nafar** (54%) fuqaroning murojaatlari ijobiy hal etildi, **180 nafar** (36,8%) fuqaroning murojaatlariga amaldagi qonun va qarorlar asosida huquqiy tushuntirishlar berilgan.

Shuningdek, hokim o'rinbosarlari tomonidan 90 marotaba shaxsiy va ommaviy (sayyor) qabullar o'tkazilib, qabullar davomida jami 434 nafar fuqarolarning murojaatlari o'rganib chiqildi. Qayd etilgan murojaatlarning 348 tasi ijobiy hal etilgan bo'lib, ijobiy hal etish darajasi **80,2 foizni** tashkil etadi.

2023-07-25 16:10:18